

RELIGIONIMLAR TIZIMIDA MA'NO KENGAYISHI VA TORAYISHI

To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna

Guliston davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15123423>

Annotatsiya: Ushbu maqolada religionimlar semantikasida o'zgarishlar umumiylikdan xususiylikka tomon yuz berganda – ma'no torayishi, xususiylikdan umumiylikka tomon yuz berganda esa ma'no kengayishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: din, religionim, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, metafora.

Diniy tushunchalar o'z taraqqiyoti jarayonida ikki turli, ya'ni umumiylikdan xususiylikka qarab borgan (ma'nosi toraygan) hamda xususiylikdan umumiylikka qarab borgan (ma'nosi kengaygan) religionimlarga bo'linishini kuzatish mumkin. Ma'nosi toraygan va kengaygan religionimlarga misollar keltiramiz:

Domla – 1. Diniy maktab va madrasalarda talabalarga ta'lim beruvchi shaxs; din va shariat peshvosi. 2. Duolar o'qib, dam solib, kasalliklardan forig' qiluvchi shaxs. *Xon mulla Niyoz domullaga qaradi, Domulla Niyoz Anvar tarafidan duoga qo'l ochdi.* (Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. T.://G'.G'ulom nashriyoti, 1975) (57). *Domla* religionimida ma'no torayishi yuz bergan. Birinchi gapda keng ma'noda, ikkinchi gapda hozirgi vaqtda ma'no torayishi yuz berganligini kuzatish mumkin.

Kursi – arabcha so'z bo'lib o'zbek tilida taxt ma'nosini beradi. Kursi haqida ham *Arsh* religionimi borasida qayd etilgan fikrlarni aytish mumkin. Biz Allohning *Arshi* va *Kursisi* borligiga imon keltiramiz. Bu ikki narsa odamlarning taxti yoki kursisiga o'xshamaydi. U ikkisining hajmi, kayfiyati va sifatini faqat Alloh taoloning O'zi biladi.

Solib ham Arshu, ham Kursiga soya,

Bo'lib Kursi aning taxtiga poya.

(Alisher Navoiy. T. 15. Farhod va Shirin. T.://G'.G'ulom nashriyoti, 1990, 8-6.). Bugungi kunda mebel jihozlariga nisbatan *kursi*, *stul*, *taburetk*a, *divan* kabi ishlatiladi. *Kursi* deganda amal, martaba ham tushunilad. *Kursi* so'zida ma'no kengayish hodisasi yuz bergan.

Mutolaa religionnimi diniy tushunchani anglatib, o'qib tushunish, faxm bilan tushunish, ravon, grammatik jihatdan to'g'ri o'qish ma'nolarini anglatadi. Qur'oni karimni o'qishda shu tamoyillarga amal qilish ta'lab etiladi. Hozirgi kunda o'zbek tilidagi umumiste'mol so'zlar tizimidagi *mutolaa* so'zi tor ma'nodagi kitobxonlik, kitob o'qish tushunchalarini beradi.

Jin arabcha so'z bo'lib to'silgan, ya'ni odamlar ko'zidan to'silgan narsa ma'nolarini beradi, uning ko'pligi – ajina. Diniy ta'limot bo'yicha Alloh yaratgan uch toifadagi aqli mavjudotlar (farishtalar, odamlar, jinlar)dan biri *jindir*. Hozirda jin religionimi dastlabki ma'nosiga nisbatan torayish yuz bergan. Masalan, – Voy xo'varingni... *jinn*ilar, voy esi yo'q xo'varilar! Qovog'imni ber *jinn*ilar! – Tuzik-tuzik, avliya. Qovog'ingizni tushirib bersam nima berasiz? – So'rag'aningni ol, *jinni*... Oyim qishlog'ig'a bek bo'l, tentak: tilla jabduqliq ot min, *jinni*... [1, 86].

Diniy tushunchani anglatadigan *minbar* religionimi islomda: *Xutba o'qiladigan joy. Masjiddagi va'z aytiladigan joy. Baland joy va baland makon* kabilarni bildiradi. Ayni kunda *minbar* majlis va yig'ilishlarda ma'ruza qilinadigan joy ma'nosida qo'llanadi.

Umumiylikdan xususiylikka qarab borgan sari religionimlarda ma'no torayishi bilan hodisaning ma'nosini aniq ifodalash kuchayib boradi.

Demak, religionimlar semantikasida o'zgarishlar umumiylikdan xususiylikka tomon yuz berganda – ma'no torayishi, xususiylikdan umumiylikka tomon yuz berganda esa ma'no kengayishi yuz beradi.

Kullas, davrlar o'tishi bilan ayrim religionimlar hodisaning ma'nosini aniq ifodalash zarurati bilan ma'no torayishiga uchraydi. Masalan, *domla, jin, aso, minbar* kabi. Ma'noda torayish yuz bergan sari hodisa mohiyati aniqroq ifodalanadi. Ayrim religionimlar esa ma'no kengayishi bilan o'zining dastlabki, boshlang'ich ma'nosini yo'qota boshlaydi. Masalan, *kursi, ziyorat, isyon, mutolaa* religionimlari kabi.

Metafora yo'li bilan hosil qilingan religionimlar. Religionimlar tilda umumtil qonuniyatlari (so'z yasash, so'z o'zlashtirish, ma'no ko'chishi va boshqalar) asosida vujudga keladi. Shu ma'noda diniy islomiy religionimlarning shakllanishi va taraqqiyotida metafora yo'li bilan hosil bo'lgan ko'plab diniy tushunchalarni uchratish mumkin. Bir qator olimlar to'g'ri ta'kidlaganidek: "Fanda yangi bilimni topish va aniqlashtirishning necha ming yillardan beri ma'lum bo'lgan bir qancha usullari mavjud. Ana shunday evristik ilmiy bilishning eng muhim usullaridan biri analogiya bo'lib, u turli obyektlar xususiyatlari, belgilari yoki munosabatlarining o'xshashligiga asoslanadi, ana shu o'xshashlikka ko'ra bir obyekt haqidagi ma'lumot ikkinchi obyektga ko'chiriladi. Bu kognitiv jarayon, shubhasiz, metafora hodisasining mohiyatini tashkil etadi" [2, 3].

Islomiy diniy tushunchalarning tarixi juda uzun. Lekin vaqtlar o'tishi bilan, jumladan hozirgi vaqtda kelib, kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi bilan metaforaga qarash butunlay o'zgardi. N.Mahmudovning ta'kidlashicha, metaforaning ikki asosiy turi farqlanadi, ya'ni lisoniy metafora va poetik (badiiy) metafora. Kognitiv yoki lisoniy metafora insonning o'z bilimlarini namoyon qilish va kontseptuallashtirish usullaridan biri bo'lib, bir obyektни boshqa bir obyekt vositasida tushuntirish va tushunishdan iboratdir. Lisoniy metafora o'xshashlik asosida nomlashni qayd etsa, "nolisoniy" metafora (kognitiv metafora) esa lisoniy metafora yuzaga kelishini tashkil etadi. Demak, lisoniy metafora kognitiv metaforasiz yuzaga kela olmaydi. Ular o'z qonuniyatidan kelib chiqib, biri ikkinchisini taqozo etadi. Har qanday lisoniy metafora zaminida ayni kognitiv mexanizm yotadi [3, 6].

Diniy tushunchalarni tadqiq etgan olimlarning fikriga ko'ra, metaforik usulda religionim hosil qilish ko'p uchraydigan hodisadir. Bunda umumadabiy yoki jonli tildagi so'zlarning biror xususiyati, shaklan o'xshashligi, rang-tusdagi bir xilligi asos qilib olinishi tufayli yangi-yangi diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar vujudga keladi. Masalan, odam tana a'zolari nomlarini ko'chma ma'noda qo'llash orqali *bosh masjid, bosh farishta, bosh imom* kabi islomiy diniy religionimlar hosil qilingan.

Biz bosh so'zining boshqa sohalarda ham termin hosil qilishini o'rganganimizda, bunday terminlarning barchasi metafora yo'li bilan hosil qilingani ma'lum bo'ldi. Masalan: *bosh konsul* (diplomatik termin), *bosh qo'mondon* (harbiy termin), *bosh uzatma* (texnik termin), *bosh fokus* (fizik termin) [4, 128]. Misollarga murojlat qilamiz:

Makkai Mukarrama – Islom olamida eng tabarruk shahar sanaladi. Uni “Ummul-kuro” (shaharlar onasi) deyiladi. Qur’oni karimning 86 ta surasi Makkada nozil bo’lgan. Unda Muhammad (s.a.v) tavallud topganlar, u zotga ilk ilohiy vahiy shu yerda nozil bo’lgan. Islomning *bosh masjid*i Masjidul Xarom. Musulmonlar qiblası Ka’ba. Zamzam bulog’i, Safo va Marva tog’lari ham Makkada.

Jome masjidı – Islom mamlakatlarida shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi asosiy va eng katta *bosh masjid*. Jamoa uchun zarur turli xabarlar e’lon qilinadigan, haftalik juma namozlari hamda hayit namozlari jamoa bo’lib o’qiladigan maxsus bino.

Imom – arab. - oldında turuvchi. Ergashiladigan shaxs, namozda oldında turuvchi, boshqaruvchi. Shar’iy istilohda esa o’rniga qarab turli ma’nolarda ishlatiladi. Islom davlati xalifalarini ham imom, deb nomlashgan. Ilm va tafakkur bobida yuksak maqomga erishgan allomalar, *mazhabboshilar*, muhaddislarga ham “imom” unvoni berilgan. Masalan: Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom A’zam, Imom Gazzoliy kabi.

Isrofil – islomda to’rt *bosh farishta*dan biri. Qiyomat kuni darakchisi.

Haj ziyoratchilarini birlashtirgan guruhga *hojiboshilar* rahbar bo’lgan. “Vakillar” deb ham atalgan *hojiboshilar* safarda yo’l ko’rsatib, guruh ichidagi turli muammolarni hal qilgan [5, 92].

Assalamu alaykum Ustoz. Maschitda birinchi jamoat *imomboshi* bilan namoz o’qib bo’lgandan keyin ikkinchi jamoat bo’lib o’qishga ruxsat yo’q degandingiz, ikkinchi jamoat mehrobda turib o’qilmaydimi yoki umuman masjid ichida jamoat bo’lib o’qilmaydimi? Mehrobda turib o’qilmaydi, lekin maschid ichida o’qisa bo’laveradi, degan javob ham bo’lyapti, bizga kengroq, batafsilroq malumot bersangiz. Alloh sizdan rozi bo’lsin. – Bu masjid imomining ruxsatiga bog’liq. Ruxsat berilsa, mehrobda turmay o’qilgani odobdan bo’ladi [6].

Bosh masjid, bosh farishta[7, 8]. *mazhabboshi, hojiboshi, imomboshi* kabi religionimlar ham metafora yo’li bilan hosil qilingan.

Demak, metaforalar inson ongining borliqni bilishdagi, nomlashdagi asosiy quroli bo’lib, u orqali insonning til faoliyati amalga oshadi, narsa-hodisalarni nomlashda ishtirok etadi, metaforalar orqali tilning ichki imkoniyatlari kengayadi. Islomiy diniy religionimlarning shakllanishida ham metaforalar yetakchi o’rinni egallaganini ko’rish mumkin. Bunday religionimlar islom dinining paydo bo’lishi va tarqalishida hamda o’zbek til diniy tushunchalarini anglatuvchi so’zlarda ham kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Khamrokulovna, T. Z. (2022). Literature is a source that reveals the truth of life.
2. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul,-qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).
3. Khamrokulovna, T. Z. (2022). On the morphological structure of the word in the uzbek language.
4. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. *Проблемы педагогики*, (7), 77-78.

5. Yerjanova, S. B., & To'ychiyeva, Z. H. L. (2024). MAHMUD KOSHIG 'ARIYNING "DEVONU LUG 'OTIT TURK" ASARIDA SO 'ZLARNI KO 'CHMA MA'NODA QO 'LLASH. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 7-12.
6. Toychiyeva, Z. (2024). RELATION OF MORPHEMA TO LEXEMA. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
7. Тураева, Д. Н., Саймуратова, И. Т., & Туйчиева, З. Х. (2024). ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И ОБРАЗЫ. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 198-202.
8. Туйчиева, З. Х. (2015). Проявление научно-исследовательских мотивов студентов в процессе обучения психолого-педагогических наук. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 89-91.
9. Джураев, М. Э. (2021). ЗНАЧЕНИЕ ГЕОХИМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ВЕРТИКАЛЬНОЙ И ГОРИЗОНТАЛЬНОЙ СВЕЗИ ПАРА
10. Sattarov, S. M., Khudaykulov, S. I., Djuraev, M. E., & Axunbabaev, M. M. (2018). DETERMINATION OF THE CONCENTRATION OF NON-CONSERVATIVE SUBSTANCES IN A MULTI-DENSITY FLOW. *Bulletin of Gulistan State University*, 2018(2), 7-12.
11. Djurayev, M., & Husenov, J. (2022). STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(01), 2428.